



SPECIFIC FEATURES AND LEGAL FOUNDATIONS OF LABOR MIGRATION IN UZBEKISTAN

Yigitali Boratalievich Nasridinov

Lecturer at Namangan State University
Namangan, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: migration, migrant, obligation, labor, international labor migration, state, consulate, consultation center, foreign affairs, legal basis.

Received: 30.05.25

Accepted: 01.06.25

Published: 03.06.25

Abstract: In the current era of globalization, the government of Uzbekistan is implementing measures to improve and regulate its external labor migration policy. These efforts prioritize the official employment of the country's population. At the heart of this strategy is the need to develop human capital by directing the working-age population toward education and professional training, taking into account the evolving demographic and socio-economic landscape. This will help prepare the national workforce to meet the standards and demands of the global labor market and ensure stable employment opportunities in the future.

O'ZBEKISTONDA MEHNATMIGRATSIYASINING XUSUSIYATLARI, HUQUQIY ASOSLARI

Yigitali Borataliyevich Nasridinov

Namangan davlat universiteti o'qituvchisi
Namangan, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: migratsiya, migrant, majburiyat, mehnat, xalqaro mehnat migratsiyasi, davlat, konsullik, maslahat markaz, tashqi ishlar, huquqiy asos.

Annotatsiya: Hozirgi globallashev davrida davlatimiz tomonidan tashqi mehnat migratsiyasi siyosatini takomillashtirish va tartibga solish choratadbirlari amalga oshirilmoqda. Bu sa'y-harakatlarda respublikamiz aholisini rasmiy bandlikka jalb etish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Ushbu strategiyaning markazida mehnatga layoqatli aholini rivojlanayotgan demografik

va ijtimoiy-iqtisodiy landshaftni inobatga olgan holda, kasb va ta'limga yo'naltirish orqali inson kapitalini rivojlantirish zarurati mavjud. Bu esa ishchi kuchimizni jahon mehnat bozori standartlari va talablariga javob beradigan tarzda tayyorlash, ularni kelajakda barqaror ish bilan ta'minlash imkoniyatlarini yaratadi.

ОСОБЕННОСТИ ТРУДОВОЙ МИГРАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ И ЕЁ ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ

Йигитали Бораталиевич Насридинов

Преподаватель

Наманганского государственного университета

Наманган, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: миграция, мигрант, обязательства, труд, международная трудовая миграция, государство, консульство, консультационный центр, внешние связи, правовая база.

Аннотация: В условиях современной глобализации в нашей стране реализуются меры по совершенствованию и регулированию политики внешней трудовой миграции. В этих усилиях приоритетной задачей обозначено официальное трудоустройство населения республики. В центре данной стратегии находится необходимость развития человеческого капитала за счёт профессионального обучения и образования трудоспособного населения, с учётом развивающейся демографической и социально-экономической ситуации. Это, в свою очередь, позволит подготовить нашу рабочую силу в соответствии с международными стандартами рынка труда и создать условия для её стабильного трудоустройства в будущем.

Kirish.

O'zbekistonda mehnat migratsiyasi muhim ijtimoiy va iqtisodiy hodisa bo'lib, u o'ziga xos xususiyatlarga ega. Migratsiyaning asosiy omillari iqtisodiy, demografik, ijtimoiy va madaniy sabablarga borib taqaladi. Mehnat migratsiyasi iqtisodiy o'sish va oilaviy daromadni oshirishda ijobiy rol o'ynasa-da, u bilan bog'liq muammolarni tartibga solish uchun samarali strategiyalar ishlab chiqish zarur. O'zbekistondan mehnat migratsiyasi asosan iqtisodiy omillar bilan bog'liq. Ish haqining pastligi va kasbiy yuksalishning cheklangan istiqbollari fuqarolarni chet elda ish topish imkoniyatini izlashga majbur qiladi. O'zbekiston mehnat muhojirlarining salmoqli qismi

tarixiy va iqtisodiy aloqalar tufayli MDHga a'zo bo'lgan Rossiya va Qozog'iston kabi davlatlarga yo'naltirilgan. Aksariyat o'zbek muhojirlari vaqtinchalik xorijda ishlashni afzal ko'radilar, ayniqsa mavsumiy qishloq xo'jaligi ishlarida. Ular ko'pincha norasmiy ish bilan shug'ullanadilar, bu esa ularning ijtimoiy sug'urta imtiyozlaridan foydalanishiga putur yetkazishi mumkin. Shunisi e'tiborga loyiqki, so'nggi yillarda ayollarning ish uchun migratsiyaga chiqish tendensiyasi oshib bormoqda, bu, ehtimol, o'z oilalarini boqish va iqtisodiy istiqbollarini yaxshilash zarurati bilan bog'liq.

Asosiy qism

O'zbekistonda mehnat migratsiyasini tartibga soluvchi qonunchilik bazasi mavjud. Masalan, "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida"gi va "Tashqi mehnat migratsiyasi to'g'risida"gi qonunlarda mamlakatdan tashqarida mehnat munosabatlariga oid qoidalar mavjud. O'zbekiston mehnat migratsiyasini tartibga solish va fuqarolarning huquqlarini himoya qilish maqsadida turli davlatlar bilan muzokaralar olib boradi va shartnomalar tuzadi. O'zbekiston mehnat migratsiyasini tartibga solish bo'yicha xalqaro sa'y-harakatlarda faol ishtirok etmoqda. "Mamlakat Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) tamoyillariga va ishchilar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan boshqa xalqaro standartlarga amal qiladi" [1].

O'zbekistonning belgilangan mamlakatlardagi konsullik xizmatlari konsullik yordamlarini taklif qilish va muammolarni hal qilishda yordam berish orqali mehnat muhojirlarining huquqlarini himoya qilishda muhim rol o'ynaydi.

O'zbekistonning davlat organlari fuqarolarni mehnat migratsiyasi bilan bog'liq qoidalar va xavf-xatarlardan xabardor qilishga, huquqiy jihatlar va himoya xizmatlari haqida ma'lumot berishga qaratilgan. O'zbekiston muhojirlar huquqlarini himoya qilishni kuchaytirish va noqonuniy migratsiyaga chek qo'yishga qaratilgan samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) va Xalqaro migratsiya tashkiloti (XMT) kabi xalqaro tuzilmalar bilan hamkorlik qiladi.

Xalqaro mehnat migratsiyasi ishchi kuchining jahon mamlakatlari orasida ko'chib yurishi bo'lib, u tashkiliy yoki stixiyali ko'chish jarayonida kechadi hamda bir qator omillar bilan belgilanadi. Bu omil shartli ravishda iqtisodiy, demografik, siyosiy omillarga bo'linib, ular o'zaro bog'langan. Bular orasida iqtisodiy omil eng asosiysi hisoblanadi. Mehnat zaxirasining xalqaro migratsiya natijasida o'ziga xos bo'lgan tovar, ya'ni ishchi kuchiga aylanishi kuzatiladi. Uning boshqa tovardan asosiy farqi shundaki, ishchi kuchi o'zi boshqa tovarning ishlab chiqarish omilidir. Mehnat zaxirasi ortiqcha bo'lgan mamlakat ishchi kuchini eksport qilishi natijasida, birinchi navbatda, ishsizlik sonini kamaytirishga erishadi hamda xorijiy valyuta kelishini ta'minlaydi. Biroq, ikkinchi tomondan, yuqori malakali mutaxassisning tashqariga chiqib ketishi

ushbu mamlakatning texnologik imkoniyatini, uning umumiy ilmiy va madaniy darajasining kamayishiga olib keladi.

Umuman olganda, O'zbekiston—da mehnat migratsiyasini himoya qilish va tartibga solishning yanada samarali tizimini yaratish, xalqaro standartlarga moslashtirish va qonunchilik bazasini mustahkamlash bo'yicha faol ish olib borilmoqda. Mehnat migratsiyasining salbiy oqibatlarini kamaytirib, uning ijobiy oqibatlarini oshirish maqsadida ko'pgina mamlakatlar tajribasi asosida ishlab chiqilgan mazkur jarayonni davlat tomonidan tartibga solinishi bilan bog'liq chora-tadbirlar ishlab chiqilishi lozim.

Davlat tomonidan mehnat migratsiyasini tartibga solishning oqibatlari munozaralarga sabab bo'lishi tufayli mazkur jarayonni tartibga solish nafaqat immigrantlarni jalb qilish va migratsiyani rag'batlantirish, balki migratsiya oqimlarini qisqartirishga ham yo'naltirilishi mumkin.

Kelgusi yillarda aholi bandligini va iqtisodiy faolligini oshirish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilayotganini e'tirof etiladi. Yangi ish o'rinlarini yaratish va mavjudlarining barqarorligini ta'minlashga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Asosiy maqsadlar orasida ishsizlik darajasini pasaytirish va ish joyiga yangi kelgan bitiruvchilar, ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar, jumladan, ayollar, nogironlar, muqaddam sudlanganlar, odam savdosi qurbonlari va tashqi migratsiyadan qaytganlar kabi turli guruhlarining bandligini ta'minlashga ko'maklashish kiradi.

Keyingi yillarda qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlarda bu borada O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi zimmasiga bir qator muhim vazifalar belgilab berilgan. Shu bilan birga xalqaro aholi migratsiyasi qator xususiyatlarni va muammoli jihatlarni o'z ichiga oladi. Eng ahamiyatlisi shundaki, migratsiya jarayonlari bugungi kunga kelib globallashtirib bormoqda va deyarli barcha mintaqalar va mamlakatlarni o'z qamroviga qamrab oldi.

Tashqi migratsiya ayrim mamlakatlar, xususan, iqtisodiyoti rivojlangan va o'tish davridagi mamlakatlar aholining umumiy o'sishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Biroq, xalqaro migratsiya oqimlari immigratsiya markazlari sifatida paydo bo'lgan xalqlarning demografik tarkibi va harakatchanligiga chuqur ta'sir ko'rsatadi, jamiyatlarda etnik va diniy xilma-xillikni kuchaytiradi, millatlararo va dinlararo munosabatlarga ta'sir qiladi[2]. Bundan tashqari, so'nggi yillarda butun dunyo bo'ylab majburiy migratsiyaning kuchayishi guvohi bo'ldi. Suriya, Iroq, Falastin, Liviyada va qo'shni Afg'oniston kabi mintaqalar ushbu migratsiya to'lqinlarining markazlashtirilgan nuqtalari sifatida paydo bo'ldi.

Zamonaviy migratsiyaning yana bir e'tiborga molik jihati — bu xalqaro muhojirlarning sifat tuzilmasi, xususan, ta'lim darajasi bo'yicha rivojlanib borayotganidir. Davlatlararo migratsiya oqimlarida yuqori malakali mutaxassislarining ishtiroki faollashmoqda. Bu vaziyat immigratsiya markazlari bo'lmish rivojlangan davlatlar uchun ijobiy ahamiyat kasb etsa, emigratsiya o'choqlari

– rivojlanayotgan va o'tish iqtisodiyotidagi mamlakatlar uchun esa buning aksi, ya'ni salbiy holatlarga olib kelishi kuzatiladi. Ushbu jarayon O'zbekistonga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Ayniqsa, yuqori malakali mutaxassislarning migratsiya jarayonini amalga oshirishi mamlakat rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, yosh avlodning chet elga o'qish uchun amalga oshirgan ta'lim migratsiyasi ham ijobiy, ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Ijobiy taraflari shundaki, talaba o'qishni tamomlab vatanga qaytgach, yangi xorij tajribalari almashinish orqali sohalarda yangicha metodikalarning kirib kelishiga sabab bo'ladi. Salbiy jihati esa, agar talaba migratsiya jarayonini amalga oshirgan davlatida qolib ketsa, yana bir ta'lim darajasi sifatli bo'lgan aholini yo'qotgan bo'lamiz. Boshqa mamlakatda yashash mobaynida qadriyatlar, urf-odatlarining qo'shib ketishi, diniy nuqtai nazardan ham aholi ongiga o'z ta'sirini o'tkazishi mumkin. Ushbu kuzatilishi mumkin bo'lgan jarayonlarning oldini olish maqsadida xavfsiz va tartibli migratsiya ishlari amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 15-sentabrdagi "Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4829-son qarori bilan xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimi joriy qilinmoqda hamda uning 6 ta asosiy yo'nalishlari belgilandi. Jumladan:

- Tashqi mehnat migratsiyasi sohasida xalqaro hamkorlik rivojlantiriladi, xorijdagi vatandoshlar tashkilotlari va o'zbek diasporalari bilan aloqalar mustahkamlanadi; xorijga ishlashga ketishdan oldin fuqarolarni kasb-hunarga va xorijiy tillarga o'qitiladi, ularga kasbiy malakani tasdiqlovchi xalqaro sertifikatlar beriladi.

- Mehnat migrantlari moliyaviy va ijtimoiy qo'llab-quvvatlanadi, ularning hayoti va sog'lig'ini sug'urtalash amaliyoti kengaytiriladi, ular uchun madaniy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etiladi.

- Mehnat migratsiyasidan qaytib kelgan shaxslar reintegratsiya qilinadi, shu jumladan ularning bandligi ta'minlanadi, kasbiy malakasi oshiriladi va tadbirkorlik tashabbuslari rag'batlantiriladi.

Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi hududiy filiallarining ishi quyidagi tartibda tashkil etiladi:

- Hokimlar hududiy filiallarga umumiy rahbarlik qiladi hamda ularga yuklatilgan vazifalarning samarali bajarilishini ta'minlaydi;

- Hududiy filial rahbarlari bir vaqtda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimining yordamchilari hisoblanadi;

• Hokimliklar mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan hududiy filiallarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash hamda faoliyatiga malakali mutaxassislarni jalb qilish choralarini ko‘radi.

Shuni ta’kidlash lozimki, bugungi kunda aholi orasida chet elga borib ishlashning asosiy sabablarini misolida doimiy yashash hududlarida iqtisodiy o‘shish darajasining pastligi, joylarda ishga kirish imkoniyatining yetishmasligi, kelajakda uy-xo‘jaliklarning oilaviy rejalashtirgan maqsadlari uchun daromadlarning yetmayotganligi sabab bo‘lmoqda.

Aniqlangan tahliliy xulosalarga ko‘ra, xorijda mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan migratsiya ishtirokchilarining mehnat qilgan mamlakatlariga oyiga o‘rtacha topgan daromadini aniqlash mezoni tashkil qilingan. Shahar va qishloq kesimida tahlil qilinganda shahar migranti 715 AQSh dollari, qishloq migranti 703 AQSh dollarigacha daromad topganligi kuzatilgan. So‘nggi safaridagi daromadining transfer qilingan ma’lumoti bo‘yicha o‘rganilganda bu ko‘rsatkich jami migrantlar tomonidan oyiga o‘rtacha 536 AQSh dollari transfer qilinganligi kuzatilgan. Migrantlar xorijda ishlab topgan (jamg‘arma) daromadlarining 73,5 foizi kundalik ehtiyojlar uchun sarflanganligi aniqlangan va 2020-yildagi ko‘rsatkichdan 2021-yil birinchi choragida 12,3 foizga oshgan[4].

Mehnat migratsiyasi ishchilar, xizmatchilar, turli sohalardagi mutaxassislar, ilmiy va texnik xodimlar, shuningdek, madaniyat va san‘at sohalari bo‘yicha harakatlanishini o‘z ichiga olgan mehnat resurslari bandligini oshirishning asosiy yo‘li hisoblanadi.

Shuni inobatga olgan holda, aholi bandligini ta’minlashga doir yana bir muhim islohotlardan biri bu — O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kambag‘al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish, ularning mehnat faolligini oshirish va kasb-hunarga o‘qitishga qaratilgan hamda aholi bandligini ta’minlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2020-yilgi 12-avgustdagi PQ-4804-sonli qarori. Ushbu qaror mamlakatimizda mehnat bozorining samarali mexanizmlarini joriy qilish, aholining ishchanlik faolligini oshirish, kambag‘al va ishsiz fuqarolarni zamonaviy kasb-hunar va tadbirkorlik ko‘nikmalariga o‘qitish, shu asosda ularni doimiy daromad keltiradigan mehnat va tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish orqali bandligini ta’minlash maqsadida qabul qilingan. Qarorda nodavlat kasb-hunarga o‘qitish muassasalarini tashkil etishga davlat tomonidan ko‘maklashish hamda shu yo‘l orqali ishsiz fuqarolarni kasb-hunarga o‘rgatib, ularga tegishli sertifikatlar berish orqali bandligini ta’minlash vazifasi yuklatilgan.

Bugungi kunda respublikamizning barcha hududlarida tashkil etilgan “Ishga marhamat” monomarkazlarining faoliyat yuritayotganini ko‘rishimiz mumkin. Undan tashqari, ushbu qarorda tashqi migratsiyani samarali tashkil etishga doir vazifalar ham belgilangan bo‘lib:

- Ishsiz va band bo'lmagan aholini,
 - Tashkil etilgan mehnat migratsiyasi yo'li bilan xorijiy mamlakatlarda ishlash uchun ketayotgan va "Labor-migration" dasturiy majmuasida ro'yxatga olingan fuqarolarni tadbirkorlik ko'nikmalari, xorijiy tillar va kasb-hunarga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish uchun ketishdan oldin davlat yoki nodavlat kasb-hunarga o'qitish muassasalariga,
 - Ishlab chiqarishning o'zida o'qitish uchun tashkilot hamda "usta-shogird" maktablariga
- Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan har bir ta'lim oluvchi uchun bir oyda bazaviy hisoblash miqdorining 4 baravaridan ortiq bo'lmagan miqdorda grantlar ajratish ko'zda tutilgan.

Migrantlar ko'pincha yangi mamlakatlarida ta'lim olish imkoniyatlarini qidiradilar. Bu, ularning malakalarini oshirish va yangi sohalarda ish topish imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi. O'zbekistonliklarning tashqi migratsion jaryonlarda faol ishtirok etishini, tabiiyki, faqat mamlakatda hammani to'liq ish bilan ta'minlash imkoniyati yo'qligi bilan bog'lash noo'rin[5]. Negaki, katta demografik muammolarni boshidan kechirayotgan Rossiya Federatsiyasi va Qozog'iston hukumati Xitoy va Kavkaz xalqlardan ko'ra, islom diniga e'tiqod qilish bilan birga, mehnatsevar va tinchlikka moil, boriga qanoat qilib yashaydigan: o'zbek, qirg'iz, qoraqalpoq va tojiklarni o'z hududlarida orqada qolgan tarmoqlarida; qishloq xo'jaligi, turli xil og'ir mehnatlar va mamlakatning taraqqiy etmagan hududlaridagi turli jisimiy mehnatga jalb qilishdan manfaatdor. Janubiy Koreya Respublikasi esa, O'zbekiston bilan uzoq muddatlik teng sherikchilik asosida olib borilayotgan davlat siyosatiga muvofiq ko'pchilik o'zbek yoshlarining ish bilan bandligini ta'minlab bermoqda. Shuningdek, O'zbekistonda koreys tili va madaniyatini o'rgatish markazlarida ta'lim olgan ko'plab talabalarning Janubiy Koreya universitetlarida ta'lim olishga bo'lgan intilishlari oshgan[6]. Yangi tilni o'rganish, ish imkoniyatlarini oshirish va ijtimoiy integratsiyani yaxshilash uchun muhimdir. Migrantlar til kurslariga qatnashish orqali o'z bilimlarini kengaytiradilar. Ko'plab migrantlar yangi sohalarda ishlash va o'z malakalarini oshirishga intilishadi. Bu, ularga yangi ish imkoniyatlarini topishga yordam beradi.

Xulosa. Zamonaviy migratsiyaning yana bir muhim jihati shundan iboratki, xalqaro migrantlarning sifat tarkibi, ya'ni ta'lim darajasi nuqtai nazaridan ham o'zgarib bermoqda. Davlatlararo migratsiya oqimlarida yuqori malakali mutaxassislarning ishtiroki faollashmoqda. Bu vaziyat immigratsiya markazlari bo'lgan rivojlangan davlatlar uchun ijobiy ahamiyat kasb etsa, emigratsiya o'choqlari – rivojlanayotgan va o'tish iqtisodiyotidagi mamlakatlar uchun esa buning aksi, ya'ni salbiy holatlarga olib kelishi kuzatiladi. Ushbu jarayon O'zbekiston Respublikasiga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi.

Xalqaro mehnat migratsiyasi uyushgan yoki o'z-o'zidan sodir bo'lgan va turli omillar ta'sirida yuzaga keladigan ishchi kuchining mamlakatlar o'rtasida harakatlanishini o'z ichiga oladi. Bu omillarga bir-biri bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy, demografik va siyosiy mulohazalar kiradi. Ular orasida esa iqtisodiy omil eng katta ahamiyatga ega. Xalqaro migratsiya mehnat fondini alohida tovar, ya'ni ishchi kuchiga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Толаметова, Зилола Абдужабборовна. "Халқаро меҳнат миграцияси ва унинг ўзига хос хусусиятлари." Экономика и финансы (Узбекистан) 3 (2016): 58-67.
2. Муминов Н.Г.. Пути эффективного использования трудовых ресурсов и повышения занятости населения
3. в регионах Республики Узбекистан// Современные технологии управления. ISSN 2226-9339. — №3
4. (96). Номер статьи: 9606. Дата публикации: 2021-11-01 . Режим доступа: <https://sovman.ru/article/9606/>
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 15 сентябрдаги “Хавфсиз, тартибли ва қонуний меҳнат миграцияси тизимини жорий қилиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4829-сон қарори. - <https://lex.uz/docs/4997972>
6. Шариф Кучаров, Ўзбекистон Республикаси Бандлик ва меҳнат муносабатлари вазирлиги ҳузуридаги Республика аҳоли бандлиги ва меҳнатни муҳофаза қилиш илмий маркази «Экономическое обозрение» журналы №7 (259) 2021.
7. Шариф Кучаров, Ўзбекистон Республикаси Бандлик ва меҳнат муносабатлари вазирлиги ҳузуридаги Республика аҳоли бандлиги ва меҳнатни муҳофаза қилиш илмий маркази «Экономическое обозрение» журналы №7 (259) 2021.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kambag'al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish, ularning mehnat faolligini oshirish va kasb-hunarga o'qitishga qaratilgan hamda aholi bandligini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” 2020-yil 12-avgustdagi PQ-4804-sonli qarori. <https://lex.uz/docs/-4945748>
9. Парманов Ф.Я. Миграция жараёнларини бошқаришда инсон омили. // Социология фанлари номзоди диссертация автореферати. – Т., 2012. – Б. 16 – 17.